



\_\_\_\_\_ hokimligi  
maktabgacha va maktab ta'limi  
boshqarmasi

\_\_\_\_\_ maktabgacha va  
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi  
\_\_\_-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
to'g'arak rahbari

\_\_\_\_\_ning  
20\_\_-20\_\_-o'quv yili uchun

**“NAQQQOSH”**

**TO'GARAK  
HUJJATLARI**

**To'garak a'zolari haqida ma'lumot**

<b>№</b>	<b>Familiya ismi va sharifi</b>	<b>Tug'ilgan sanasi</b>	<b>Sinfi</b>	<b>Manzili (to'liq)</b>	<b>Ota-onasi (Ismi sharifi)</b>	<b>Telefon (uy yoki mobil)</b>	<b>Izoh</b>
1.							
2.							
3.							
4.							
5.							
6.							
7.							
8.							
9.							
10.							
11.							
12.							
13.							
14.							
15.							

16.							
17.							
18.							
19.							
20.							
21.							
22.							
23.							
24.							
25.							
26.							
27.							
28.							
29.							
30.							

O'tkazilgan xona \_\_\_\_\_





*Maktabdan kasb va tilni bilib chiqqan bola jamiyatimizning katta yutug‘i, bilmagani muammo.*

*Shavkat Mirziyoyev.*

**TASDIQLAYMAN”**

**MMIBDO‘** \_\_\_\_\_

**20\_\_-20\_\_-o‘quv yili uchun tuzilgan “Naqqosh” nomli to‘garagining  
ISH REJASI**

<b>№</b>	<b>Yillik ish reja mavzulari</b>	<b>Soat</b>	<b>Sana</b>	<b>Izoh</b>
1.	Kirish	1		
2.	Naqqoshlik san‘atining tarixi.	1		
3.	Naqqoshlik san‘atining rivojlanishi.	1		
4.	Naqqoshlik maktablari	1		
5.	Badiiy bezak – naqqoshlik san‘atining rivojlanishi	1		
6.	Toshkent naqqoshlik maktabi	1		
7.	Farg‘ona naqqoshlik maktabi.	1		
8.	Xorazm naqqoshlik maktabi.	1		
9.	Buxoro naqqoshlik maktabi.	1		
10.	Samarqand naqqoshlik maktabi.	1		
11.	Hunarmandchilik odobi tarixi	1		
12.	Hunarmandchilik ustoz-shogird” an‘analari.	1		
13.	Naqqoshlikda ishlatiladigan materiallar va asbob uskunalar	1		
14.	Mo‘yqalam turlari	1		
15.	Belcha	1		
16.	Qog‘oz va kal‘ka	1		
17.	Qalam, o‘chirg‘ich va Sirkul	1		
18.	Jilvir qog‘oz.	1		
19.	Bo‘yoq turlari	1		
20.	Guash	1		
21.	Guash bilan ishlash usullari	1		
22.	Akvarel	1		
23.	Akvarel bilan ishlash usullari	1		
24.	O‘simliksimon naqsh elementlari	1		
25.	Naqsh elementlarini chizish	1		
26.	Dastlab yo‘l ichidagi naqshlarni chizish	1		
27.	Naqsh elementlari	1		
28.	Naqsh so‘z atamaları	1		
29.	Stilizatsiya va uning o‘ziga xos xususiyatlari	1		
30.	Stilizatsiya va uning o‘ziga xos xususiyatlari	1		
31.	Rang turlari	1		
32.	Rangning o‘ziga xos xususiyati	1		
33.	Naqqoshlik kompozitsiyalari haqida tushuncha	1		
34.	Naqqoshlik kompozitsiyalari haqida tushuncha	1		
35.	Girih turlari	1		
36.	Girih chizish	1		
37.	Girih kompozitsiyalarni tuzish uslublari	1		

38.	Qo'li gul xalq amaliy san'at ustalari	1		
39.	Girih naqshlarini tuzish	1		
40.	Naqqosh ustalar ishlaridan nusxa ko'chirish usullari	1		
41.	Naqsh elementlarining turlari va unung o'ziga xosligi.	1		
42.	Mustaqil ish uchun amaliy topshiriqlar.	1		
43.	Mustaqil ish uchun amaliy topshiriqlar.	1		
44.	Oddiy naqsh namunalarini bo'yash va ularga pardoz berish.	1		
45.	Oddiy naqsh namunalarini bo'yash va ularga pardoz berish	1		
46.	Turli shakl yuzalariga naqsh kompozitsiyasi chizish.	1		
47.	Doira ichida naqsh kompozitsiyasi chizish.	1		
48.	Mustaqil ish uchun amaliy topshiriqlar.	1		
49.	Girih va gulli girih kompozitsiyalarni chizish.	1		
50.	Girih va gulli girih kompozitsiyalarni chizish.	1		
51.	Girih kompozitsiyani tuzish	1		
52.	Mustaqil ish uchun amaliy topshiriqlar.	1		
53.	Sodda shaklli buyumlar yuzasiga naqsh kompozitsiya chizish.	1		
54.	Sodda shaklli buyumlar yuzasiga naqsh kompozitsiya chizish	1		
55.	Namoyon naqsh kompozitsiyalar.	1		
56.	Namoyon naqsh kompozitsiyalar.	1		
57.	Tanob shakl yo'nalishi	1		
58.	Naqsh kompozitsiyasini pardozlash	1		
59.	Yog'och buyumlar yuzasiga naqsh kompozitsiya chizish	1		
60.	Yog'och buyumlar yuzasiga naqsh kompozitsiya chizish	1		
61.	Yog'och buyumlarni naqshlash	1		
62.	Kulolchilik buyum bezaklari	1		
63.	Qadimgi likopchalardagi bezaklar	1		
64.	Samarqand me'moriy bezaklari	1		
65.	Milliy ramzlar	1		
66.	Dunyo xalqlari naqshlari va ularning o'ziga xos tomonlari	1		
67.	Ramziy naqshlarning alifbosi.	1		
68.	Xulosa	1		

**Mavzu: Kirish**

**Mashg‘ulotning maqsadi:**

**Ta‘limiy maqsad:** to‘garak a‘zolari faolligi va mustaqilligini oshirish, me‘morchilik san‘ati va u bilan chambarchas bog‘liq xalq amaliy san‘ati, xususan naqqoshlik, o‘ymakorlik, ganchkorlik, kandakorlik kabi sohalaridagi ijod namunalari o‘rgatish.

**Tarbiyaviy maqsad:** o‘quvchilarni mehnatsevarlikka o‘rgatish, turmushdagi ehtiyojlar va ulardan foydalanish, naqqoshlik, o‘ymakorlik kasbida yuqori bilimli bo‘lishni, mahorat va malaka orttirishni, ish o‘rnini tashkil qilish qonun qoidalarini tushuntirish.

**Rivojlantiruvchi maqsad:** O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohatlar, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlariga muvofiq to‘garak a‘zolarini sifatli o‘qitish va tarbiyalash, mustaqil fikrlashga qodir bo‘lgan, hozirgi zamon bozor sharoitlarida ishni izchil tashkil eta oladigan, yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash.

**Mashg‘ulot turi:** yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

**Mashg‘ulot uslubi:** tushuntirish, suxbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko‘rgazmali va boshqalar.

**Mashg‘ulot metodi:** guruhlarda ishlash, kim epchil-u, kim chaqqon”, ko‘rsam tezroq o‘rganaman”, muammo va yechim” shu kabi metodlar.

**Mashg‘ulot jihozi:** Naqsh chizish uchun oq qog‘oz, yumshoq qora qalam, chizg‘ich va o‘chirg‘ich, guash, akvarel, moy bo‘yoqlar, suv idish va ranglarni qorish uchun idishchalar.

**Mashg‘ulotning borishi:**

**I. Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**II. Uyga vazifani so‘rash:** a) Savol – javob o‘tkazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Ko‘p tarixiy manbalar va adabiyotlarda berilgan ma‘lumotlarga ko‘ra naqqoshlik san‘ati juda qadimdan rivojlanib kelgan. Qadimiy bo‘lishi bilan birga yillar davomida o‘zining qimmatini va qadrini yuksaltirib borgan san‘at turi hisoblanadi. Ajdodlarimizning qo‘llariga qurol olib o‘zlarining turmush ehtiyojlarini qondirish maqsadida yasagan barcha anjom hamda jihozlari amaliy san‘atning ma‘lum bir turiga borib qo‘shiladi. U toshga ishlov berish bo‘lsin, yog‘ochni yo‘nish bo‘lsin umuman aytganda yaratuvchanlik tashabbusi yuzaga kelgan. Buni biz o‘sha amaliy san‘atning boshlang‘ich qadamlari deb qabul qilsak bo‘ladi. O‘zlari bilmagan holda go‘zallikka intilishi hamda uni o‘z mahsulotlarida ifoda etish san‘atdagi ilk qadamlarining nishonasidir. Shu tariqa murakkab hayot bosqichlaridan o‘tib hozirgacha o‘z tarovatini yo‘qotmagan bu san‘at turlari milliy bezak san‘atimizning o‘zagi hisoblanadi. Har qanday amaliy san‘at turiga oid asarlarni tahlil qilganimizda uning tarkibiy qismi naqsh kompozitsiyalardan iborat ekanligini kuzatamiz. Demak naqsh kompozitsiyalarni turlarga mos qilib qo‘llab borish azaldan ustalarimiz ijodining samarasi bo‘lib kelgan. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq mamlakatimizda boshlangan bunyodkorlik ishlari qadimiy qadamjolar, milliy merosimiz bo‘lgan madrasa va minoralar o‘zbek naqshu nigorlari bilan bezatilgan inshootlarni aks holicha saqlash ularni tamirlash va qayta qurish hukumatimizning qarorlarida o‘z ifodasini topdi. Buning misolida Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi Imom Al- Buxoriy majmuasi, imom al Motrudiy maqbarasi, Xo‘ja Ahrori Vali masjidi, Xo‘ja Doniyor maqbarasi shunga o‘xshash juda ko‘plab ulug‘lar yashab o‘tgan maskanlar obod qilindi. Ularni bezatish ishlari hozirgi kunda faoliyat olib borayotgan naqqoshlik maktablarining vorislari Toshkent, Farg‘ona, Samarqand, Buxoro va Xiva maktablarining usta naqqoshlari o‘zlarining betakror naqqoshlik va yog‘och o‘ymakorligi asarlari bilan bezatdilar. Kompozitsiyalarni kuzatar ekanmiz har birining o‘ziga xos uslub yaratilganligi va nafis qilib ishlanganligini guvohi bo‘lamiz. O‘zbek xalq amaliy bezak sana‘tining turlari ularning rivojlanish tarixi, ularga doir maktablarning vujudga kelishi ustalarining ish uslublari yaratgan asarlarining badiiy tahlili xususida yozilgan kitoblar va manbalarning tahchillik muommosi mustaqillikka erishganimizdan so‘ng yechila boshlandi. Bu borada pedagogika fanlari doktori professor S.S. Bulatovning bir qator darslik va qo‘llanmalari: —O‘zbek xalq amaliy bezak san‘ati, —Naqqoshlik, Ganchkorlik, —Naqsh alifbosi, —Rangshunoslik, O‘zbek xalq amaliy bezak san‘ati ensiklopediyasini misol qilib aytib o‘tish mumkin. Ayniqsa —O‘zbek xalq amaliy bezak san‘ati nomli kitobi amaliy san‘at fanlari o‘qitiladigan oliy o‘quv yurtlari, kasb - hunar kollejlari hamda nafis san‘at litseylari va umumta‘lim maktablari o‘quvchilari uchun keng foydalaniladigan qo‘llanma sifatida qabul qilindi. Q.Qosimovning — Naqqoshlik, A.IIhomovning —O‘zbek naqshu nigorlari, K.G‘ulomovning—, Ashyolarga ishlov berish, Xolmatovning —Kompozitsiya nomli qo‘llanmalari ham bu sohadagi yangi adabiyotlardir. Mazkur qo‘llanmada ham yuqorida nomlari aytib o‘tilgan mualliflarning asarlaridan foydalanib naqqoshlik fanining nazariy va amaliy mashg‘ulotlarini tashkil qilishning metodikasini yoritib berishga harakat qilindi.



**IV. Mashg‘ulotni yakunlash:** to‘garak a‘zolarini yutuq va kamchilliklarini muxokama qilish, rag‘batlantirish.

**V. Uyga vazifani e‘lon qilish:** yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustaxkamlash.



Sana: \_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 20\_\_-yil. Sinflar: \_\_\_\_\_ To‘garak rahbari: \_\_\_\_\_

**Mavzu: Naqqoshlik san’atining tarixi.**

**Mashg‘ulotning maqsadi:**

**Ta’limiy maqsad:** to‘garak a’zolari faolligi va mustaqilligini oshirish, me’morchilik san’ati va u bilan chambarchas bog‘liq xalq amaliy san’ati, xususan naqqoshlik, o‘ymakorlik, ganchkorlik, kandakorlik kabi sohalaridagi ijod namunalari o‘rgatish, mehnatni tashkil etishga ijodiy yondashish tuyg‘usini tarbiyalash, ta’lim berishning jamoa shakllarini asta-sekin mustaqil, yakka tartibda ishlashga o‘tkazish, o‘zlariga yuklatilgan topshiriqlarni mustaqil va mas’uliyatni his qilgan holda amalga oshirish.

**Tarbiyaviy maqsad:** o‘quvchilarni mehnatsevarlikka o‘rgatish, turmushdagi ehtiyojlar va ulardan foydalanish, naqqoshlik, o‘ymakorlik kasbida yuqori bilimli bo‘lishni, mahorat va malaka orttirishni, ish o‘rnini tashkil qilish qonun qoidalarini tushuntirish.

**Rivojlantiruvchi maqsad:** O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohatlar, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlariga muvofiq to‘garak a’zolarini sifatli o‘qitish va tarbiyalash, mustaqil fikrlashga qodir bo‘lgan, hozirgi zamon bozor sharoitlarida ishni izchil tashkil eta oladigan, yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash.

**Mashg‘ulot turi:** yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

**Mashg‘ulot uslubi:** tushuntirish, suxbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko‘rgazmali va boshqalar.

**Mashg‘ulot metodi:** guruhlarda ishlash, kim epchil-u, kim chaqqon”, ko‘rsam tezroq o‘rganaman”, muammo va yechim” shu kabi metodlar.

**Mashg‘ulot jihozi:** Naqsh chizish uchun oq qog‘oz, yumshoq qora qalam, chizg‘ich va o‘chirg‘ich, guash, akvarel, moy bo‘yoqlar, suv idish va ranglarni qorish uchun idishchalar.

**Mashg‘ulotning borishi:**

**I. Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**II. Uyga vazifani so‘rash:** a) Savol – javob o‘tkazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

O‘zbek xalqining ko‘p asrlik tarixida xalq amaliy san’ati madaniy merosimizning asosiy qismini tashkil qilib kelgan. Inson qo‘l mehnati mahsulining san’at darajasiga ko‘tarilib, hozirgacha o‘z qiymatini yo‘qotmagan o‘zbek xalq amaliy san’ati turlari go‘zalligi va betakrorligi bilan jahonga mashhurdir. Bu taraqqiyot bosqichi haqida fikr yuritar ekanmiz o‘zbek amaliy san’atining kelib chiqishi insoniyatning ibtidoiy jamoa davri hayotiga borib taqalishining guvohi bo‘lamiz. O‘zbekiston hududida olib borilgan arxeologik qazishlar natijasida topilgan yodgorliklardan olingan ma’lumotlarga ko‘ra insonning jismga badiiy ishlov berish usulida buyum yaratish faoliyati tosh asridayoq boshlanib ,asrlar osha hozirgacha davom etib kelmoqda. Ibtidoiy jamoa tuzumidan bizgacha yetib kelgan ashyoviy dalillarni mehnat va ov qurollari, uy – anjom va bezakli buyumlar, odamlar yashagan manzil qoldiqlarida ko‘ramiz. Qazishlar natijasida tuproq ostidan chiqqan topilmalar xususan odam va hayvonlar jasadining qoldiqlari, g‘or va yerto‘la devorlariga chizilgan sur‘at va bo‘rtma tasvirlar ibtidoiy jamoa davri tarixini o‘rganishning muhim manbai hisoblanadi. Paleolit davrida amaliy – dekorativ san’at namunalari ham keng tarqala boshladi. Buyumlarni naqsh bilan bezashga, turli taqinchoqlarga tumorlarga ehtiyoj paydo bo‘lganligi arxeologlar tomonidan topilgan ashyoviy buyumlarda namoyon bo‘lmoqda. Qadimdan uy-ro‘zg‘or buyumlariga bo‘yoqlar bilan ajoyib naqshlar ishlanib kelingan. Hozirda bu naqqoshlik san’ati deb yuritiladi.



**IV. Mashg‘ulotni yakunlash:** to‘garak a’zolarini yutuq va kamchilliklarini muxokama qilish, rag‘batlantirish.

**V. Uyga vazifani e‘lon qilish:** yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustaxkamlab kelish.

Sana: \_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 20\_\_ -yil. Sinflar: \_\_\_\_\_ To‘garak rahbari: \_\_\_\_\_

**Mavzu: Naqqoshlik san‘atining rivojlanishi.**

**Mashg‘ulotning maqsadi:**

**Ta‘limiy maqsad:** to‘garak a‘zolari faolligi va mustaqilligini oshirish, me‘morchilik san‘ati va u bilan chambarchas bog‘liq xalq amaliy san‘ati, xususan naqqoshlik, o‘ymakorlik, ganchkorlik, kandakorlik kabi sohalaridagi ijod namunalari o‘rgatish, mehnatni tashkil etishga ijodiy yondashish tuyg‘usini tarbiyalash, ta‘lim berishning jamoa shakllarini asta-sekin mustaqil, yakka tartibda ishlashga o‘tkazish, o‘zlariga yuklatilgan topshiriqlarni mustaqil va mas‘uliyatni his qilgan holda amalga oshirish.

**Tarbiyaviy maqsad:** o‘quvchilarni mehnatsevarlikka o‘rgatish, turmushdagi ehtiyojlar va ulardan foydalanish, naqqoshlik, o‘ymakorlik kasbida yuqori bilimli bo‘lishni, mahorat va malaka orttirishni, ish o‘rnini tashkil qilish qonun qoidalarini tushuntirish.

**Rivojlantiruvchi maqsad:** O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohatlar, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlariga muvofiq to‘garak a‘zolarini sifatli o‘qitish va tarbiyalash, mustaqil fikrlashga qodir bo‘lgan, hozirgi zamon bozor sharoitlarida ishni izchil tashkil eta oladigan, yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash.

**Mashg‘ulot turi:** yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

**Mashg‘ulot uslubi:** tushuntirish, suxbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko‘rgazmali va boshqalar.

**Mashg‘ulot metodi:** guruhlarda ishlash, kim epchil-u, kim chaqqon”, ko‘rsam tezroq o‘rganaman”, muammo va yechim” shu kabi metodlar.

**Mashg‘ulot jihozi:** Naqsh chizish uchun oq qog‘oz, yumshoq qora qalam, chizg‘ich va o‘chirg‘ich, guash, akvarel, moy bo‘yoqlar, suv idish va ranglarni qorish uchun idishchalar.

**Mashg‘ulotning borishi:**

**I. Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**II. Uyga vazifani so‘rash:** a) Savol – javob o‘tkazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Naqqoshlik amaliy san‘atning mustaqil bir turi sifatida qadimdan turli ko‘rinishlarda rivojlanib kelgan, unda o‘zbek ustalari faqat uy-ro‘zg‘or buyumlarini emas, balki uy-joy va jamoat binolarining ichki qismi devor va shiplarini ham bezaganlar. San‘atning bu turida xalq ichidan chiqqan usta hunarmandlar o‘ziga xos uslublarda ijod qilishgan. Buni boshqa millat vakillarining ijodida ham ko‘rishimiz mumkin. Rus amaliy san‘atida ustalar tekis yog‘och yuziga o‘simliksimon naqsh rasmini tushirib unga maxsus bo‘yoqlar bilan ishlov berishadi.

Bo‘yoqlarning uzoq muddat saqlanishi uchun qurigandan so‘ng ustidan bir necha qatlamda tiniq lak surtiladi. O‘zbek ustalarining ish uslubi esa bunga qaraganda boshqacha bo‘lib ular eskiz bo‘yicha duradgor ishlagan yog‘och buyum yuzasiga yelim surtadilar, uning usti jilvir qog‘oz bilan tekislangandan so‘ng, materiallarga bronza beriladi. Keyin bronza ustidan ulgi asosida kompozitsiya tushiriladi, uning ustiga qora bo‘yoq surtib, so‘ngra naqsh ishlanadi. Xuddi shunday naqshlarni yanada chiroyli ko‘rinishi va uzoq muddatga saqlanishi uchun naqsh ustidan bir necha bor toza lak surtiladi. Xalq ustalari asarlarini kuzatar ekanmiz naqsh kompozitsiyalarda naqsh elementlarining egri chiziqli o‘simliksimon islimi, hamda geometrik shakllardan hosil bo‘lgan naqsh - girihlar va gulli girihlarni tuzish bilan bezatilganligini ko‘ramiz. Gulli girih esa ikkala tur elementlarning ishtirokidagi bir butun kompozitsiyani tashkil qiladi. Islimi turdagi asosiy elementlar –novda, yaproq, gul, g‘uncha kurtak, qalampir, meva, poya kabilar hisoblanadi. Poya va novda turli naqshlarning eng ko‘p uchraydigan elementlaridan biri bo‘lib, ular naqsh kompozitsiyalarining hoshiyalarida qo‘llaniladi. Girihlar esa to‘rsimon va yulduzsimon bo‘lib, yulduz nurlarining soni 5 tadan 16 tagacha bo‘lgan burchakliklardan iboratdir. Naqshning uchinchi turi hisoblangan gulli girih naqshida esa naqsh geometrik va o‘simlik elementlarining bir-biriga qo‘shib ishlatilishi natijasida hosil bo‘ladi. Bunda geometrik element doimo naqsh markazida joylashadi va tayanch ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Naqqoshlik san‘ati mana shunday jozibali ko‘rinishlari bilan xalq amaliy bezak san‘atining asosini tashkil qilib, uning eng nafis turlaridan biri hisoblanadi. Xalq amaliy san‘atining boshqa turlarini naqsh elementlarining ishtirokisiz tasavvur etish qiyin. Naqshning lug‘aviy ma‘nosi – gul va bezak degan ma‘noni anglatadi. Ular kompozitsiyon qo‘llanishi bilan amaliy san‘at asarlariga jilo bag‘ishlaydi.

**IV. Mashg‘ulotni yakunlash:** to‘garak a‘zolarini yutuq va kamchiliklarini muxokama qilish, rag‘batlantirish.

**V. Uyga vazifani e‘lon qilish:** yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustaxkamlab kelish.



*veb-saytimiz: [Zokirjon.com](http://Zokirjon.com)*

*Hujjat Word variantda beriladi.*

*Zokirjon Admin bilan*

*90-530-00-68 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz yoki nza4567 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.*

*Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi*

**75 listdan iborat Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarga 34 soatli "Naqqoshlik" to'garakni to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.**




**Narxi: 30 ming so'm**

**Telegram kanalimiz:**

**@Maktablar\_uchun\_hujjatlar**

**To'lov uchun: UZCARD \*880\*9860230104973329\*summa#**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



## **DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet orqali veb-saytlarga joylamang.

Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA**

**HIYONAT QILMANG.**